

Diskursiv-semantik tahlilning nazariy-metodologik asoslari

Dilrabo Baxronova

O'zDJTU professori, filol.f.d.

<https://orcid.org/0000-0002-2012-7426>

dbaxronova@uzswlu.uz

Annotatsiya Tilshunoslikda diskurs va semantika tushunchalari til va ma'no o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Diskurs faqatgina matn va kontekstni emas, balki ularning ijtimoiy-madaniy va kommunikativ omillar bilan bog'liqligini ham o'z ichiga oladi. Semantika esa ma'no va tushunchalarni tahlil qilishga qaratilgan soha bo'lib, diskurs jarayonida matnning dinamik o'zgaruvchanligini ochib beradi. Diskursiv semantika bu ikki sohaning birlashmasi bo'lib, matn va diskursni kontekstual va interkontekstual jihatdan ma'noli qilish jarayonlarini tadqiq etadi. Shu asosda metodologiyada diskursiv-semantik tahlil katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola diskursiv semantikaning nazariy asoslari va amaliy qo'llanishiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: diskurs, semantika, diskursiv semantika, diskursiv-semantik tahlil, milliy identiklik, intertekstuallik

KIRISH Diskursiv semantika konsepsiyasi o'zaro bog'liq bo'lgan g'oyalar, qadriyatlar hamda identiklikni ifodalashni o'z ichiga olib, turli mafkuraviy nuqtai nazarlar asosida talqin qilinadi. Ushbu nazariya real va potensial matnlar to'plami sifatida intertekstual bog'lanishlarni aks ettiradi, introlingvistik va ekstralingvistik bilimlarni o'zida mujassam etadi va ko'pincha eksplitsit ravishda ifodalanadi. Ushbu ko'lamli yondashuv diskurs va semantikaning birlashmasi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda diskurs ikki asosiy yo'nalishda – kommunikativ-diskursiv va kognitiv-diskursiv nuqtai nazardan tadqiq qilinadi. Kommunikativ-diskursiv yondashuv vakillari diskursni gapiruvchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ hodisa sifatida ko'rib, uni Ferdinand de Sossyur ta'riflagan "nutq" tushunchasi bilan tenglashtiradilar. Kognitiv-diskursiv yondashuv esa til va tafakkur munosabatlarini kompleks konsepsiya sifatida o'rganishga qaratilgan. Masalan, V. Petrov insonning kognitiv strukturasi (qabul qilish, til, tafakkur, xotira, harakat) bir butun tizim ekanligini va bu tizim bilishni o'zlashtirish, qayta ishlash va transformatsiya qilish kabi jarayonlar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Xorijiy olimlardan H. Kalsamigliya, A. Tuson, M. Eskandell Vidal, D. Howarth, V. Karasik, N. Boldirev, G. Slisshkin va A. Kibriklar diskursning turli jihatlarini, jumladan, uning nazariy tasnifi, pragmatik va semantik xususiyatlarini o'rganganlar. O'zbek tilshunosligida esa Sh. Safarov diskursiv tahlil, S. Mo'minov o'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari, M. Saidxonov noverbal vositalar va ularning o'zbek tilidagi ifodasi, L. Raupova dialogik diskurs, M. Hakimov, A. Pardayev, N. Mahmudov kabi olimlar esa pragmatik tilshunoslik doirasida diskursning o'rni va ahamiyatini o'rganishga katta hissa qo'shganlar.

Golland tadqiqotchisi T. van Deyk esa diskursni faqat matn yoki og'zaki suhbat doirasida emas, balki til, jamiyat va mafkura bilan bog'liq murakkab fenomen sifatida ko'radi. Olimning fikricha, diskursni retsiptiyentlar bilan muloqot jarayonining mahsuloti sifatida talqin qilish kerak. Ushbu yondashuv diskursni lingvistik va sotsial kontekstlarda o'rganishga imkon beradi.

Mazkur maqola lingvistika doirasidagi nisbatan yangi yo'nalish – diskursiv semantikaga bag'ishlanib, uning markaziy va periferik qatlamlarini tahlil qiladi. Diskursiv semantika diskursni semantik jihatdan anglashga imkon beruvchi nazariy asoslarni aniqlashni maqsad qiladi.

Diskursiv semantika – bu tilshunoslikning juda muhim va jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir, u til va mantiqni o'rganishning yangi va keng qamrovli yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Diskursiv semantika, asosan, matnlarni va nutqni tahlil qilish orqali ma'noviy xususiyatlarning qanday shakllanishini, sema va maqsadning qanday uzviy ifodalanishini o'rganadi. Bu yo'nalish tilning nafaqat sintaktik yoki morfologik jihatlarini, balki uning kontekstual va kommunikativ elementlarini ham inobatga oladi. Diskursiv semantika, shuningdek, til orqali xabar berish jarayonidagi insonlarning fikrlash, qaror qabul qilish, his-tuyg'ularini ifodalash kabi mental jarayonlarni o'rganishni ham qamrab oladi.

Diskursiv semantikaning mohiyati va vazifalari Diskursiv semantika, ilk bor, Fransiyadagi strukturalistlar maktabi ilmiy doirasida muhokamaga tortilgan. Struktural tahlil, asosan, tilning strukturasini (so'zlar, gaplar va ularning o'zaro bog'lanishini) o'rganishga qaratilgan edi. Diskursiv semantika esa bu konseptlarni yanada kengroq – butun matn va nutq jarayonida qamrab olib, semantik ma'nolarni qanday yuzaga kelishi va kontekstual jihatlarini qanday inobatga olish kerakligini ko'rsatib berdi.

Diskursiv semantikaning asosiy vazifasi til orqali ma'no va maqsadlar qanday yaratiladi, ular tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan qanday qabul qilinadi, degan savollarga javob izlashdir. Har bir matn yoki nutq o'ziga xos semantikaga ega bo'lib, bu ma'no tinglovchining yoki o'quvchining shaxsiy tajribalari, bilimlari va dunyoqarashiga qarab farqlanadi. Diskursiv semantika bu farqlarni, matnlar orasidagi aloqalar va tahlilni o'rganishga yordam beradi.

Diskurs va semantika: o'zaro bog'liqlik. Diskursiv semantikaning asosiy tushunchalari “diskurs” va “semantika”dir. Diskurs – bu nutq jarayoni, ya'ni muloqot, fikr almashish va til orqali ma'no ifodalash jarayonidir. Semantika esa til birliklari – so'zlar, jumlar va ular qurilihsidagi mazmun-mohiyatni tizimli o'rganadi, ma'noviy bog'lanishining o'ziga xosligini tahlil qiladi. Bu ikki tushunchaning qo'shma hosilasi bo'lgan “diskursiv semantika” til (nutq) orqali ma'no qanday yaratiladi va qanday qilib u jamiyat tomonidan tushuniladi, talqin qilinadi, degan savollarga javob izlaydi. Bu o'rinda, diskurs va semantika o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish uchun, avvalo, tilning nafaqat grammatik yoki sintaktik, balki kontekstual jihatlarini ham muhimligini ta'kidlash joiz. Diskursiv semantika nafaqat so'zlarning o'zi, balki ularning muayyan jamiyat tomonidan qo'llanilishi va ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq holda qanday ma'no kasb etishiga ham e'tibor qaratadi.

Diskursiv semantikaning yana bir muhim elementi intertekstuallikdir. Intertekstuallik – bu bir matnning boshqa matnlar bilan bog'lanishi, o'zaro aloqasi va ta'siri, ya'ni bir matn mohiyati boshqa matn orqali to'liq anglashilishidir. R.Kasimova “intertekstuallik nazariyasi zamonaviy g'arb postmodern madaniy mafkuraviy tendensiyasi ta'sirida yuzaga kelgan matn nazariyasining bir turi bo'lib, keng qamrovlidir. Ushbu nazariya zamonaviy g'arb madaniyatining asosiy strukturalizm, semiotika, poststrukturalizm singari nazariyalaridan tashqari yangi tarixshunoslik, feminizm, tarjimashunoslik amaliyotiga ham kirib bormoqda”, deb ta'kidlaydi. Intertekstuallik nazariyasi 1969-yilda fransuz semiotiki, strukturalist, psixanalitik va feministik g'oyalar targ'ibotchisi Yulia Kristeva tomonidan fanga kiritilgan. Intertekstuallik diskursning asosiy tushunchasi ekanligini H.Hu ham ta'kidlagan. Uning fikricha, matn yaratish jarayonida turli korpuslarning bir-biri bilan kesishishi va o'zaro ta'sir ko'rsatishi diskursning g'ibrid xususiyatidir. Ushbu matn o'zidan avvalgi yoki keyingi boshqa matnlarga ta'sir o'tkazadi va ular bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Diskursiv semantikada ham intertekstuallik juda muhim ahamiyatga ega, chunki bir matnning ma'nosi boshqa matnlar yoki madaniyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, bir asar yoki nutqning ma'nosi boshqa bir asarning kontekstida o'zgarishi, bir madaniyatdagi tushuncha boshqa madaniyat prizmasida ko'zgudagidek akslanishi, ravshanroq tushunilishi mumkin. Demak, diskursiv semantika, shu tarzda matnlar orasidagi aloqalarni tahlil etish orqali kengroq madaniy va ijtimoiy kontekstlarni o'rganadi, mohiyatni oydinlashtirib beradi.

Diskursiv semantikaning metodologiyasi ko'plab ilmiy metodlarga tayanadi. Birinchi navbatda, bu metodologiya tilning semantik jihatlarini o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bu usulda, nutq va matnlar tahlil qilinadi, so'zlar va jumlar o'rtasidagi aloqalar va ularning ijtimoiy, madaniy, kognitiv va psixologik kontekstdagi ma'nosi aniqlanadi. Bundan tashqari, diskursiv semantika

tahlilining bir usuli – bu soʻz va gaplarning oʻzaro bogʻlanishini va qanday qilib ular kommunikativ jarayonlarda ishlatilishini oʻrganishdir. Bu jarayonda, har bir soʻz va ibora oʻzining semantik maʼnosidan tashqari, maʼlum bir ijtimoiy vaziyatda qanday ishlatilishini ham koʻrib chiqadi.

Diskursiv semantikaning tilshunoslikdagi oʻrni salmoqlidir. U tilshunoslikda yosh soha boʻlishiga qaramay, ilmiy jamiyatda katta eʼtibor qozondi. Ayniqsa, lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika va psixolingvistika fanlari uchun diskursiv semantika alohida ahamiyat kasb etadi. U nafaqat tilni, balki ijtimoiy munosabatlarni, madaniyatlarni, fikr va shaxs individualizmini oʻrganishga yordam beradi. Diskursiv semantikaning til, tilning oʻziga xos xususiyatlari, kommunikativ va kognitiv jarayonlar yoritishdagi ulkan hissasini ham taʼkidlash joiz.

Demak, diskursiv semantika – bu tilning ijtimoiy, madaniy, va kommunikativ oʻrnini hamda til vositasida fikr va maʼno ifodalash jarayonlarini oʻrganadigan muhim ilmiy soha. Ushbu yoʻnalish nafaqat soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini tahlil qiladi, balki ularning ijtimoiy muloqotda qanday ishlatilishini, qanday sharoitlarda yangi maʼnolar hosil qilishini ham oʻrganadi. Diskursiv semantika intertekstual va kontekstual jihatlarni hisobga olib, matnni kengroq kommunikativ muhitda talqin qilishga imkon yaratadi. Bunda matn nafaqat lingvistik birlik, balki muayyan jamiyatning ijtimoiy va madaniy konteksti bilan chambarchas bogʻliq muloqot jarayonining mahsulidir.

Diskurs va matn munosabati haqida gapirganimizda, matnni diskursning lingvistik shakli sifatida koʻrish mumkin, yaʼni diskurs muloqot jarayonida yuzaga kelgan va axborotni yetkazuvchi roli bilan bogʻlangan lingvistik shakldir. Shu bilan birga, diskurs faqatgina lingvistik xususiyatlar bilan chegaralanib qolmaydi; u insonning psixologik, ijtimoiy va kognitiv jarayonlarini ham oʻz ichiga oladi. Bu jarayonlarni tahlil qilish orqali diskursiv semantika soha sifatida oʻziga xos ahamiyatga ega boʻladi. Masalan, V.Chernyavskaya taʼkidlaganidek, diskursiv semantika faqatgina matndagi tor kontekstual maʼnolarni emas, balki intertekstual va intradiskursiv munosabatlarni ham oʻrganadi. Ushbu nuqtai nazar matnlaro bogʻliqlikni aniqlash, maʼno oʻzgarishlarini tushunish va ularning madaniy hamda kognitiv aspektlarini yoritishga imkon beradi.

Koʻrinib turibdiki, diskursiv semantikaning nazariy ahamiyati zamonaviy lingvistika tadqiqotlarida muhim oʻrin tutadi. Bu sohaning asosiy vazifasi maʼnoni qanday qilib til, kontekst va jamiyat orqali shakllantirishni tahlil qilishdan iborat. Diskurs semantikasini tahlil qilishda uning turli jihatlari, jumladan, leksik birliklarning intertekstual ahamiyatini, matnning pragmatik funksiyasini va muloqot jarayonidagi rolini aniqlash zarur hisoblanadi. Diskursiv semantikaning muhim xususiyati shundaki, u faqat mavjud matnlarni emas, balki potensial matnlar toʻplamini ham qamrab oladi. Bu jihat ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytiradi va diskurs tahlilining kompleks yondashuvini taʼminlaydi.

Shuningdek, diskursning turli koʻrinishlari, masalan, ekskursiya diskursi, reklama diskursi yoki psixologik diskurs, turli kommunikativ va kontekstual parametrlar asosida tahlil qilinadi. Bunday tahlil, masalan, turistik kontekstda madaniy va tarixiy ahamiyatga ega joylar haqida axborot yetkazish yoki psixologik matnlarda insonning ichki dunyosini talqin qilishda qoʻllanilishi mumkin. Bu esa diskursiv semantikaning universal tadqiqot usullari va mavzulariga moslashuvchanligini koʻrsatadi.

Diskursiv semantika yoʻnalishi doirasida diskursiv-semantik tahlil kelib chiqqan boʻlib, bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar usuli sifatida fanga jadal kirib kelmoqda. **Diskursiv-semantik tahlil**, bu matnning leksik, semantik, pragmatik va kontekstual jihatlari oʻrganish orqali til birliklarining oʻzaro bogʻliqligini aniqlashga qaratilgan lingvistik tadqiqot usuli hisoblanadi. Ushbu tahlil til birliklarining nafaqat grammatik va semantik xususiyatlarini, balki ular jamiyatda qanday ishlatilishini, ijtimoiy-madaniy kontekstni aks ettirishini va intertekstual aloqalarini ham tahlil qiladi. Diskursiv-semantik tahlil matnni statik hodisa sifatida emas, balki dinamik jarayon sifatida koʻradi, bunda til orqali maʼno yaratiladi va uzatiladi. Bu tahlil usuli orqali matnning maʼnosi va uning kommunikativ vazifasi oʻrtasidagi murakkab bogʻliqlik, shuningdek, matnning madaniy kodlari, ijtimoiy konnotatsiyalari va psixologik taʼsiri oʻrganiladi. Diskursiv-semantik tahlilning asosiy jihatlari quyidagilar kiradi: a) Intertekstual aloqalar: diskursiv-semantik tahlil matn ichidagi va

boshqa matnlar bilan bogʻlanishlarni tahlil qiladi; b) Pragmatik vazifa: matnning tinglovchi yoki oʻquvchi auditoriyasiga qanday taʼsir qilishini tahlil etadi; c) kontekstual koʻlam: matnning ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstdagi oʻrnini ochib beradi; d) til va maʼno munosabati: soʻz va iboralar oʻz maʼnolarini faqat lingvistik tizimda emas, balki kommunikativ jarayonda qanday oʻzgarishini oʻrganadi. Masalan: Beshikdan qabrgacha ilm izla, naqlida madaniy kodlar orqali milliy identiklikni diskursiv-semantik tahlil qilish mumkin. Ushbu iborada “beshik” va “qabr” leksemalari oʻzbek xalqining madaniy kodlarini aks ettirib, hayotning boshi va oxirini anglatadi, hamda nafaqat bilim olish zaruriyatini, balki uni inson hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilishni taʼkidlaydi. Kontekstual tahlil orqali bu naqlning tarbiyaviy va milliy identiklikni shakllantiruvchi xususiyati oydinlashadi.

Antonio Machadoning “Sobre la tierra amarga” sheʼri intertekstuallik diskursiv-semantik tahlilida “tierra – yer” konsepti insonning ichki iztiroblari va tashqi dunyoning shavqatsizligi oʻrtasidagi murakkab bogʻliqlik sifatida ishlatilgan. Tierra - Yer nafaqat geografik obyekt, balki milliy va madaniy identiklikning ramzi sifatida oʻz intertekstual maʼnosini ochib beradi. Shu bilan birga, boshqa poeziya namunalari bilan oʻzaro bogʻliqlikni tahlil qilish orqali Machadoning individual kognitiv strategiyalari ham aniqlanadi.

Diskursiv-semantik tahlil 1) adabiy tahlil (matnlarning badiiy qiymatini va ularning kognitiv xususiyatlarini ochib beradi); 2) til oʻqitish (chet tillarida milliy identiklikni aks ettiruvchi matnlar orqali til oʻrgatishda foydalaniladi); 3) marketing va reklama (reklama matnlarining semantik xususiyatlarini oʻrganish orqali ularning auditoriyaga taʼsir qilish darajasi va jozibadorligini oshirish imkonini beradi); 4) ijtimoiy tadqiqotlar (ijtimoiy va siyosiy diskurslarni tahlil qilish orqali jamiyatdagi qadriyatlarni aniqlashga yordam beradi) va hk.

Umuman olganda, diskursiv semantika fani hosilasi boʻlgan *diskursiv-semantik tahlil* – bu matn va maʼnolarni chuqur tahlil qilish uchun muhim vosita boʻlib, u lingvistik, ijtimoiy va madaniy omillarni birlashtiradi. Ushbu tahlil jamiyatdagi nutqiy va madaniy aloqalarni chuqurroq tushunish, shuningdek, matnlarning ijtimoiy va semantik ahamiyatini dallilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, diskursiv semantika, bu matn va muloqotning birligi, jamiyatning madaniy va psixologik konteksti bilan uygʻunlashgan ilmiy sohasidir. U til vositasida muloqotni oʻrganish va maʼno shakllanishi jarayonlarini tahlil qilishga yoʻnaltirilgan. Diskursiv semantika zamonaviy lingvistika tadqiqotlarida matn, til va fikrni ijtimoiy va kognitiv jihatdan tahlil qilishning samarali metodologiyasini taklif etadi. Shu tariqa, diskurs nafaqat tilshunoslikning, balki madaniyatshunoslik va sotsiologiyaning ham tadqiqot obyektiga aylanadi. Xususan, diskurs – bu jarayon, matn esa uning natijasi boʻlib, u nutq faoliyati turlari (gapirish, yozish, eshitish, oʻqish)ni emas, balki nutq va fikrlashga asoslangan ijodni aks etadi. Diskursiv semantikaning eng muhim xususiyatlaridan biri uning intertekstualligi, shu bilan birga maʼnoga ega boʻlishi uchun muayyan belgi, qoida va cheklolarga boʻysunishi, yaʼni tartibga solinuvchanlik qobiliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakhtin, M. M. (1986). *The Dialogic Imagination: Four Essays*. University of Texas Press.
2. Baxronova, D., Ataxanova, S. (2024) Oʻqish va oʻrganishdagi muammolarni bartaraf etishda psixolingvistikaning oʻrni: disleksiya. “ISFT” Ilmiy-uslubiy jurnal 1/1-2024 (maxsus son). www.jurnal.isft-ilm.uz
3. Calsamiglia, H. y A. Tusón (1999). *Las cosas del decir. Manual de análisis del discurso*. Barcelona: Ariel.
4. Dalieva, M. Kh. (2023) Issues on studying conceptual meaning of a word in aliterary text. *Thematic Journal of Applied Sciences*. Vol-3, No-4, pp. 4-7.
5. Derrida, J. (1976). *Of Grammatology*. Johns Hopkins University Press.
6. Escandell Vidal, M. V. (1996). *Introducción a la pragmática*. Barcelona: Ariel.

7. Foucault, M. (1972). *The Archaeology of Knowledge*. Pantheon Books.
8. Halliday, M. (1994). *An Introduction to Functional Grammar*. Edward Arnold.
9. Howarth, D. (2000). *Discourse*. Philadelphia: Open University Press. ISBN 978-0-335-20070-2.
10. Hu, H. (2006) Inheritance and development of literature and culture from the perspective of intertextuality. *Academia*. – No. 5. – pp. 205-209.
11. Ismoil kizi, G. E., Shukurovna, K. F., & Bakhronova, D. (2024). The Constitutive Nature of Gender Mainstreaming Discourse: Uzbekistan Context. *SPAST Reports*, 1(2). <https://doi.org/10.69848/sreports.v1i2.4891>
12. Karasik V. I. Religious discourse. *Linguistic personality: problems of linguoculturology and functional semantics*// Volgograd: Peremena, 1999. – pp. 5-19.
13. Kasimova R. (2022) Tarjimaning mutarjim psixologiyasiga ta'siri // O'zbekistonda xorijiy tillar. – № 4 (45). – B. 110-122.
14. Van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. Sage Publications.
15. Wodak, R., & Meyer, M. (2009). *Methods of Critical Discourse Analysis*. Sage Publications.
16. Ковалева, Е. А. (2009). Дискурсивная семантика поэтических текстов: место железнодорожного дискурса. *Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Лингвистика*, (25 (158)), 94-97.
17. Орлова, Н. В., Бутакова, Л. О. (2022) Дискурсивная семантика: онтологические основания и опыт реконструкции // *Филологический класс*. – 2022. – Т. 27, № 4. – С. 30–37. DOI: 10.51762/1FK-2022-27-04-03.